

**MA'RIFATPARVARLIK VA JADID DAVRI ASARLARINING FONETIK VA
MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI (“QAROLAR FALSAFASI” VA
“TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARLARI MISOLIDA)**

*Ochilova Sarvinoz Husan qizi,
ToshDO TAU, O'FF,
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
yo 'nalishi 3-bosqich talabasi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'rifatparvarlar va jadidlar davri adabiyot namunalari bo'lgan Anbar Otin qalamiga mansub “Qarolar falsafasi” asari hamda Abdulla Avloniy ijod namunasi bo'lgan “Turkiy guliston yoxud axloq” asarlarining fonetik va leksik jihatlari o'r ganildi.

Kalit so'zlar: *ma'rifatparvarlar, jadidlar, Anbar Otin, Abdulla Avloniy, “Qarolar falsafasi”, “Turkiy guliston yoxud axloq”.*

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlariga kelib o'zbek xalqi hayotida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan, Markaziy Osiyo chorizm tomonidan bosib olindi. Buning natijasi tilimiz, dinimiz, milliy madaniyatimiz salbiy o'zgarishlarga yuz tutdi. Bu davrdagi xalqni uyg'otish, birlikka chaqirish, ilmi bo'lishga targ'ib qiluvchi kishilar **ma'rifatparvarlar** deb ataladi. Milliy harakatlarini g'oyaviy-ma'rifiy tayyorlab bergen va ularni ruhlantirib turgan ma'rifatparvarlar orasida Zavqiy, Muqumiyl, Furqat, Avaz O'tar o'g'li, Ahmad Donish, Karimbek Kamiy, Is'hoqxonto'ra Ibrat va ayollardan Anbar otin Farmonqul qizi kabilar e'tiborga loyiq.

Ma'lumki, O'zbek millati shakllanguniga qadar o'zbek tili urug' va elat tili tarzida yashab, rivojlanib kelgan. Ijtimoiy munosabatlar yuzaga kelishi bilan bir vaqtida millatlar ham tashkil topa boshlaydi. Millatlarning tashkil topishida asosiy omil milliy tildir. Ma'rifatparvarlar davridan keyin, ya'ni XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O'rta Osiyo hududida ziyolilar o'rtasida milliy o'zlikni anglash hissi kuchaydi. Bu davrdagi ziyoli, millat uchun o'zlarini baxshida etgan kishilar **jadidlar** deb yuritiladi. Jadidlar taraqqiyotga erishishning bosh yo'li ma'rifat ekanligini his qilib, avvalo, yangi tipdag'i maktablar ochish, zamonaviy oliy maktablar tashkil etish, dunyoda bo'layotgan ishlardan xalqni xabardor qilish, matbuotni rivojlantirish, san'atni rivojlantirish, mamlakatdag'i iqtidorli yoshlarni Ovro'pa o'quv yurtlariga yuborish asnosida milliy ongni shakllantirishga, xalq orasida avj urgan illatlarni fosh etish maqsadida teatrlar tashkil qilishga urindilar. qisqa muddat ichida yangi tipdag'i maktablar uchun darsliklar yozishga kirishildi va bunday maktablarda darslar ona tilida olib borildi. Shuni aytib o'tish lozimki, bundan keyin darsliklarni qaysi tilda bo'lishi ko'pchilik orasida muzokaralarga sabab bo'ldi. Xususan, bir guruh jadidlar darsliklarning usmonli

turkchada bo‘lishi taklifi bilan chiqdilar. Bu haqida Fitrat quydagilarni yozadi: “...*Mana shunday kulinch bir holda qolgan burungi ziyorolarimiz: “tilimiz ilmiy, adabiy bir til emas ekan*” degan kulinch bir qarashga keldilar. Mana shuning bilan maktablarimiz, yozuvlarimiz usmonlicha ta’siri ostida qoldilar. Toshkentda ochilgan kurslarda ona tili saboqlari uchun berilgan soatlarning ko‘prog‘i usmonlichaga berildi. Samarqandda ochilgan birinchi muallimlar kursiga esa ona tili degan narsa kiritilmadi. 1918-yildagi Maorif sho‘rosining bir majlisida ham o‘tgan yildagi muallimlarning qurultoyida shunday bir qaror berilgan edi: “*Maktablarimizning ibtidoiy uch yilida ona tili o‘zbekcha o‘qitulsin, ondan so‘ng adabiy umumiy turk tili o‘qitulsin!*” *Bunlarning adabiy umumiy turk tili deganlari arabcha qatnashgan usmonlicha edi*”. Bu holat tabiiy ravishda jadidchilikning boshqa vakillari o‘rtasida e’tiroz tug‘dirdi.

Bu ikki davrda yaratilgan asarlar tilida ham bir qancha tafovutlarni uchratish mumkin. Quyida ma’rifatparvarlar davriga mansub, Anbar Otin muallifligidagi “Qarolar falsafasi” hamda jadidlar davriga mansub Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarlari fonetik va morfologik jihatdan tahlil qilinadi.

“Qarolar falsafasi”. 1870-yilda Qo‘qonda tavallud topgan o‘zbek shoirasi Anbar otin she’rlar yozish bilan birga mahallasidagi xotin-qizlarga ta’lim tarbiya bergen. Tojik va o‘zbek tillarida ijod qilgan. Zamondoshlari Zavqiy, Muqumiylar, Furqatlar bilan nafaqat tanish bo‘lgan, balki she’rlarida ularga murojaat qilgan, bahslashgan ham. O‘zbekcha she’rlaridan devon tuzgan. Devonida 41 g‘azal, 4 muxammas, 1 qit’a, 1 masnaviy, 1 mustazod o‘rin olgan 70-yillarning boshida shoiraning 40 ga yaqin she’rdan iborat yana bir qo‘lyozma devoni, “Qarolar falsafasi” risolasi, 160 mis-ralik “yakka bayt”lari topildi, tojikcha g‘azallaridan devon tuzish niyati bo‘lgan, ammo bor-yo‘qligi hozirda noma’lum. She’rlari aksariyat ijtimoiy mavzuda. Zamonaadolatsizligidan, mehnatchi xalqog‘ir ahvoldidan so‘z ochadi, ma’rifatni ulug‘laydi. “Qarolar falsafasi” asarida ayollarning og‘ir qismati haqida hikoya qilinadi. Anbar otin Farmonqul qizi asarlari qo‘lyozmasi O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi (inv. № 1647).

“Qarolar falsafasi” da fonetik tahlil

Tovush tushishi: *burni* (*burun+ni*), *qornida* (*qorin+i+da*)

Tovush almashishi: *dimog‘ingga* (*dimoq+ing+ga*)

Tovush ortishi: *undin* (*u+din*)

“Qarolar falsafasi”da morfologik tahlil

Ot: *hamtovoq, olam, bosh, mujgon* (*kiprik*), *ono* (*ona*), *mah* (*oy*), *charog‘* (*chiroq*) va boshqalar.

Sifat: *barqaror, qaro, qora, bovujud, qorong‘u, bakor, haqir, log‘ar, befoyda, hisobsiz, noiloj,*

Fe’l: *qilurman, bo‘lgan, o‘lturub, surtkon, yarashgon, o‘ldiki, olduk, bo‘salar* (*bo‘lsalar*)

Ravish: hanuz, emdi (endi).

Olmosh: ul, o'shal, andoq, shundoq, ne, men, man, sen

Yordamchi so'z turkumlari: ila, ilan - bilan ma'nosida, go 'yo, uzra

Ot yasovchi qo'shimchalar: -liq, -lik, -lig'

Masalan, qaroliq, ayriliq

Sifat yasovchi qo'shimchalar: bar-, be-, ba-, -siz

Masalan, barqaror, bakor, hisobsiz, noiloj, bovujud

Ravishdosh yasovchi qo'shimcha: -ub pishurub

Sifatdosh yasovchi qo'shimcha: -gon yarashgon, -kon surtkon, -g'on bo'lg'oni

Egalik qo'shimchasi: -si onosi

Tushum kelishigi qo'shimchasi: -ni burni, qorni, -n mehrin

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi: -ga dimog 'ingga, -g'a bir-birig 'a

Chiqish kelishigi qo'shimchasi: -din peshonadin, -dan g'irosidan

O'rinn-payt kelishigi qo'shimchasi: -da qornida

"To'ydurur" so'zida birinchi -ur orttirma nisbat qo'shimchasi, ikkinchi -ur kelasi zamon qo'shimchasini ifodalagan.

"Turkiy guliston yoxud axloq". Ushbu asar XIX asr oxiri XX asr boshidagi o'zbek ma'rifatchisi, shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniyga tegishlidir. A.Avloniy 1878-yilning 12-iyulida Toshkentda tavallud topgan. O'qchidagi eski maktabda, so'ngra madrasada o'qigan. "Shuhrat", "Osiyo" gazetalarini chiqargan, ammo ularning faoliyati tezda tugatilgan. Bir qancha tashkilotlarda a'zo bo'lish bilan birgalikda millat ma'naviyati uchun birlashgan ko'pgina tashkilotlarni tashkil ham qilgan. U "Advokatlik osonmi" (1914), "Pinak" (1916), "Biz va siz" (1917), "Portugaliya inqilobi", "Ikki muhabbat", "Bo'ron" kabi pyesalar, "Tulki ila qarg'a" masali, "Mardikorlar ashulasi", "Vatan" (1916), "Maktab", "Bog'cha", "Yalqov shogird tilidan", "Tog'lardan bir manzara", "Millatga xitob", "Ishchilara tortuq", "Ko'klam keldi", "Tovush" kabi she'rlarning muallifi. Tahlilga tortilayotgan "Turkiy guliston yoxud axloq" asari Sa'diyning "Guliston" asari usulida o'zbek tilida yozilgan axloq kitobidir. Abdulla Avloniyning mazkur asari 1913 yilda Toshkentda Ilin bosmaxonasida litografik (toshbosma) usulida nashr etildi. Asar bunday darslikka bo'lgan ehtiyojni hisobga olib 1917 yilda ikkinchi marta chop qilindi.

"Turkiy Guliston yoxud axloq" asari fonetik xususiyatlari

Tovush tushishi: o'rнida (o'rнi+и+да), o'г'ли (o'г'ил+i)

Tovush almashishi: yaxshiligini (yaxshi+лик+i+ни)

Tovush ortishi: bunday (bu+n+day), uyasinda (uya+си+n+d), o'ldug'unindan (o'l+ду+г'ун+i+n+дан)

"Turkiy Guliston yoxud axloq" asarining morfologik xususiyatlari

Ot: kitob, yaxshilik, yomonlik, misol, xulq, kishi fikr, narsa va boshqalar.

Sifat: *chin, pahlavon, bahodir, xabardor, yaxshi, yomon, murakkab, baxtiyor, oq, qora* va boshqalar.

Fe'l: *chaqirguvchi, qaytarguvchi, bayon qilmoq, demoq, ish qilmak, bilmak, ibodat qilgan, demishlar* va boshqalar.

Ravish: *emdi, kecha, kunduz.*

Olmosh: *hamma, har kim, har bir, bu, u, o'z, qanday, na, nima, kim.*

Son: *ikki, yetti*

Yordamchi so'z turkumlari: *va, uchun, ila, -la, -u, uzra, balki*

Ot yasovchi qo'shimchalar: *-lik yaxshilik; -liq yomonliq.*

Sifat yasovchi qo'shimchalar: *be- beimon; -li qobiliyatli sababli; -dor xabardor; -siz tarbiyatsiz.*

Fe'l yasovchi qo'shimcha: *-la o'yla, so'yla.*

Ravishdosh yasovchi qo'shimcha: *-ub o'qub; -ib bilib*

Sifatdosh yasovchi qo'shimcha: *-gan olmaydurgan; -guvchi chiqarguvchi, qaytarguvchi.*

Egalik qo'shimchasi: *-i o'zi, yomonligi; -ing jisming*

Tushum kelishigi qo'shimchasi: *-n ekanin, yurganin; -ni qadrini, qimmatini, -i vujudimizi, fikrimizi.*

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi: *-g'a tuzatmakg'a, yaxshilikg'a; -ga darajasiga*

Chiqish kelishigi qo'shimchasi: *-dan uxlamasdan, xulqdan, narsadan; -din gunahdin.*

O'rinn-payt kelishigi qo'shimchasi: *-da oramizda, islomiyada*

Qaratqich kelishigi qo'shimchasi: *sening, mamlakatimizning, davlatning*

Xulosa.

Yuqorida keltirilgan har ikkala asarda ham fonetik tahlilda tovush tushishi, tovush ortishi, tovush almashishi kabi hodisalar uchraydi. Barcha so'z turkumlari faol ishtirok etadi. Asosan fe'l so'z turkumiga oid so'zlarda singarmonizm saqlanishi kuzatiladi. Olmoshning bir qancha eski o'zbek adabiy tilida qo'llangan variantlari keltiriladi. "Qarolar falsafasi" asarida "Turkiy Guliston yoxud axloq" asariga nisbatan ko'proq singarmonizm, ya'ni tovushlar uyg'unligi kuzatiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Abdushukurov B. O'zbek tili tarixi. – Toshkent : Nodirabegim, 2021
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Anbar_otin_Farmonqul_qizi
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Avlonyi
4. www.ziyouz.com/turkiy_Guliston_yoxud_axloq
5. Анбар отин. Шеърлар, рисола. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1970